

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

(2021- yil yanvar- sentabr oylari uchun, dastlabki ma’lumotlar)

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra **1939,5** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **15,8** ming kishiga yoki **0,8 %** ga ko‘paydi. Jumladan shahar aholisi soni **949,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **989,7** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.

Ming kishi



Doimiy aholi soni

1939,5



✓ **Tug‘ilganlar soni**

28,9



✓ **O‘lganlar soni**

6,6



✓ **Nikohlar soni**

11,3



✓ **Ajrimlar soni**

1,1



✓ **Ko‘chib kelganlar soni**

9,6



✓ **Ko‘chib ketganlar soni**

16,2




Shahar joylarda
949,8 ming kishi

Doimiy aholi soni
1939,5 ming kishi

Qishloq joylarda
989,7 ming kishi


Doimiy aholi sonining tuman (shahar) lar bo'yicha taqsimlanishi (1- oktabr holatiga ko'ra, ming kishi)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **9,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Doimiy aholi sonining yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi (jami aholi soniga nisbatan, % da)



■ mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ■ mehnatga layoqatli yoshdagilar ■ mehnatga layoqatli yoshdan kattalar



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar- sentabr oylari uchun, ming kishi)

	2021- yil
Doimiy aholi soni	1939,5
Tug'ilganlar	28,9
Vafot etganlar	6,6
Aholining tabiiy o'sishi	22,3
Kelganlar	9,6
Ketganlar	16,2
Migratsiya saldos	-6,6
Tuzilgan nikohlar	11,3
Nikohdan ajralishlar	1,1
1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille	
tug'ilish	20,0
o'lim	4,6
aholining tabiiy o'sishi	15,4
tuzilgan nikohlar	7,8
nikohdan ajralishlar	0,8

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **28,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,0** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida 19,8 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman (shahar)lar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- sentabr)



Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **6,6** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi.

Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2021- yil yanvar- sentabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2021-yilning yanvar- sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,9 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i - o‘simtalardan, 7,5 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,1 %i - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,3 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,3 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,5 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 71,8 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 9,1 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,0 %i - tug‘ma anomaliyalardan, 1,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,0 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 0,3 %i - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan va 15,8 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Tabiiy o‘sinh. 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida aholining tabiiy o‘shishi 22,3 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,8 ming kishiga (2020- yilning yanvar- sentabr oylarida 21,5 ming kishi bo‘lgan) ko‘paygan.


Tabiiy o‘sinh — 22,3 ming kishi



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni (yanvar- sentabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- sentabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)




Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Nukus tumanida** (9,8), **Nukus shahrida** (8,6) **Kegeyli** (8,5) va **Amudaryo** (8,5) kuzatildi.


Tumanlar bo'yicha 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Shumanay** (6,5), **Qorao'zak** (6,5), **Taxtakopir** (6,4) va **Taxiatosh** (6,1) tumanlarida kuzatildi.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlar soni to‘g‘risida ma‘lumot (yanvar- sentabr oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- sentabr oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Xo‘jayli (1,2)**, **Qo‘ng‘irot (1,0)**, **Nukus tumani (1,0)** va **Taxiatosh (1,0)**, tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Beruniy (0,5)**, **Qorao‘zak (0,5)**, **Taxtako‘pir (0,5)** va **Mo‘ynoq (0,3)** tumanlarida kuzatildi.





Aholi migratsiyasi



	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr
 Ko'chib kelganlar soni, kishi	5 263	9 610
 Ko'chib ketganlar soni, kishi	8 303	16 184
 Migratsiya saldosi, kishi	-3 040	-6 574

Migratsiya (Ichki va tashqi migratsiya qo‘shilgan holda). 2021- yil yanvar- sentabr oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 9610 kishini tashkil etdi.

2021- yil yanvar- sentabr oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni 16184 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosi. 2021- yil yanvar- sentabr oylarida migratsiya saldosi minus 6574 kishi bo‘lib, 2020- yilning mos davrida minus 3040 kishi bo‘lgan.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Tuman (shahar)lar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
(2021- yil yanvar- sentabr uchun, kishi)

	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 610	16 184	-6 574
Nukus shahri	3 223	3 150	73
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	257	845	-588
Beruniy	235	599	-364
Bo'zatov	1 207	1 328	-121
Qorao'zak	133	563	-430
Kegeyli	410	1 094	-684
Qo'ng'iro't	343	1 184	-841
Qonliko'l	278	479	-201
Mo'ynoq	331	253	78
Nukus	582	814	-232
Taxiatosh	493	776	-283
Taxtako'pir	156	453	-297
To'rtko'l	421	600	-179
Xo'jayli	678	1 488	-810
Chimboy	360	1 401	-1 041
Shumanay	196	501	-305
Ellikqal'a	307	656	-349



Poytaxtdagi demografik holat




Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga **327,5** ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan **3,7** ming kishiga yoki **1,1** % ga o'sgan.



Tug'ilganlar soni,
kishi



Tug'ilish koeffitsiyenti,
1000 aholiga nisbatan,
promille



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Nukus shahrida **4,6** ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan **19,1** promilleni tashkil etdi (2020- yilning mos davrida **18,1** promille bo'lgan).




Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar



Nikoh. FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **2084** ta nikohlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **8,6** promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **3,9** promillega ko'paydi (2020- yilning mos davrida **4,7** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlar FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **211** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,2** ga ko'paydi. 2020- yilning mos davrida **0,7** promille bo'lgan.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57